

O'zbekiston Respublikasi  
Axborot texnologiyalari  
va kommunikatsiyalarini  
rivojlantirish vazirligi

MUHAMMAD  
AL-XORAZMIY NOMIDAGI  
TOSHKENT AXBOROT  
TEXNOLOGIYALARI  
UNIVERSITETI



Ministry for development of  
information technologies and  
communications of the  
Republic of Uzbekistan

TASHKENT UNIVERSITY  
OF INFORMATION  
TECHNOLOGIES NAMED  
AFTER MUHAMMAD  
AL-KHWARIZMI

100084 Toshkent shahri, Amir Temur ko'chasi, 108  
Tel: 238-64-89, 238-64-15. E-mail: info@tuni.uz

1209/6-02 -son

«23» 04 2022 yil

O'zbekiston Respublikasi  
Oliy va o'rta maxsus ta'lim  
vazirligiga

Vazirlikning 2022-yil 14-martdagi 4-son Hay'at qarori topshiriqlari ijrosi yuzasidan Muhammad al-Xorazmiy nomidagi Toshkent axborot texnologiyalari universitetida amalga oshirilgan ishlar to'g'risida ma'lumotlarni yubormoqdamiz.

Ilova: 2 varaq

Rektor v.b.

B.Maxkamov

Muhammad al Xorazmiy nomidagi  
Toshkent axborot texnologiyalari universitetining  
2022-yil "23"- 04 dagi 1209/6-01 -son xatiga  
Ilova

**MUHAMMAD AL-XORAZMIY NOMIDAGI TOSHKENT AXBOROT TEXNOLOGIYALARI UNIVERSITETIDA  
OLIV VA O'RTA MAXSUS TA'LIM VAZIRLIGI 4- SON HAY'AT QARORINING IJROSI TO'G'RISIDA  
H I S O B O T**

Hay'at qarorlarida belgilangan vazifalar	TATU dan mas'ul rahbar (F.I.Sh., lavozimi, xizmat telefoni)	Ijrosi to'g'risida ma'lumot (Hay'at qarorlarida belgilangan topshiriqlarning bajarilish tartibi va erishilgan natijalar)
<b>14.03.2022 yil №4/1. Tayanch doktorantlarga 2022-yil uchun O'zbekiston Respublikasi Prezidenti davlat stipendiyalarini tayinlash to'g'risida</b>		
<p>2023-yil uchun O'zbekiston Respublikasi Prezidenti davlat stipendiyalariga nomzodlarni tayyorlash, ularning hujjatlarini Vazirlikka o'z vaqtida taqdim etilishiga mas'ul xodimlarning javobgarligini oshirishga qaratilgan choralarni ko'rish;</p> <p>bir oy muddatda ushbu Hay'at qarori Ilmiy kengashlarda muhokama qilish vazifalari yuklatilsin.</p> <p>O'zbekiston Respublikasi Prezidenti davlat stipendiyasi tanlovining yakuniy bosqichigacha muvaffaqiyatli ishtirok etgan tayanch doktorantlar Ulug'bek Eshpulatovich Giyosovga hamda Doston To'rayevich Hasanovga bazaviy hisoblash miqdorining 10 barobar miqdorida (1 bazaviy hisoblash miqdori 270 000 so'm) moddiy rag'batlantirilsin.</p>	<p><b>Ilmiy tadqiqotlar va innovatsiyalar, ilmiy-pedagog kadrlar tayyorlash bo'limi boshlig'i</b> <b>N.Ulyanova</b> <b>71 2386403</b></p>	<p>Ushbu 4/1-son Hay'at qarori ijrosi yuzasidan Muhammad al-Xorazmiy nomidagi Toshkent axborot texnologiyalari universitetining 292-sonli (05.04.2022.y) buyrug'i kiritilgan.</p> <p>Universitetda kelgusi o'quv yilida iqtidorli talabalarni tanlash va barcha Davlat stipendiyalariga nomzodlarning hujjatlarini yig'ish va vazirlikka taqdim etish bo'yicha chora-tabirlar rejasi ishlab chiqilgan hamda mas'ullarga vazifalar taqsimlandi va universitet rektori tomonidan tasdiqlangan.</p> <p>Aprel oyi so'ngiga qadar universitetning Ilmiy kengashida mazkur Hay'at qarorini muhokama qilish rejalashtirildi.</p> <p>Universitetning mazkur buyrug'i bilan tayanch doktorantlar Giyosov Ulug'bek Eshpulatovich va Hasanov Doston To'rayevichga aprel oyi ish haqi bilan birgalikda may oyining birinchi besh ish kunida to'lab berilishi</p>

		rejalashtirildi.
<b>14.03.2022 yil №4/2. Oliy ta'lim muassasalarini rivojlantirish jamg'armasining 2021-yildagi tushumi va sarf xarajatlari to'g'risida</b>		
<p>O'zbekiston Respublikasi Hisob palatasi tomonidan o'rganish o'tkazilib, mazkur masaladagi kamchiliklar bo'yicha tegishli ko'rsatmalar berilganligini inobatga olib, 2021-yil uchun Oliy ta'lim muassasalarini rivojlantirish jamg'armasi hisob raqamiga o'tkazilishi lozim bo'lgan mablag'larni <b>ikki hafta muddatda</b> to'lanishini ta'minlasin.</p>	<p><b>Jismoniy va yuridik shaxslarning murojaatlari bilan ishlash, nazorat va monitoring bo'limi boshlig'i</b>  <b>L.Jo'rayev</b>  <b>71 238 65 62</b></p>	<p>Ushbu 4/2-son Hay'at qarori ijrosi yuzasidan Muhammad al-Xorazmiy nomidagi Toshkent axborot texnologiyalari universitetining 304-sonli (07.04.2022.y) buyrug'i kiritilgan.</p> <p>2021-yil uchun Oliy ta'lim muassasalarini rivojlantirish jamg'armasi hisob raqamiga o'tkazilishi lozim bo'lgan mablag' O'zbekiston Respublikasi Moliya vazirligi tomonidan universitet xarajatlar smetasiga tegishli o'zgartirishlar kiritilgandan so'ng to'lab berilishi rejalashtirildi.</p>

Ijrochi: L.Jo'rayev  
712386562

